

Boshlang'ich Sinf Ona Tili-O'qish Savodxonligi Darslarida O'Quvchilariga "Mo'jizaviy Hasharot" Mavzusini O'Qitishning Samarali Usuli

G'oziyeva Sharofatxon Qaxorovna¹, Tilavoldiyev Sarvinozxon Salohiddin qizi²

Annotatsiya: "Mo'jizaviy hasharot" mavzusi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida 7 soatga mo'ljallangan bo'lib, ushbu maqolada dars jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda, fanga oid, tayanch hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, bolalarni mantiqiy o'ylashga, kreativ fikrlashga, jamoviy ishlashga o'rgatishda yordam beradigan turli qiziqarli metodlardan foydalanilgan.

Key words: knowledge, skills, competence, compensation, logical, thinking, creative thinking, method, dialogue, boomerang, cluster, venn diagram.

Yosh avlodni ma'naviy va axloqiy barkamol qilib tarbiyalash vazifasi ko'p jihatdan o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning bog'lanishli nutqini talab darajasida o'stirish bilan bog'liq. Kitob - kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, fazilatli inson qilib tarbiyalaydi, yorqin kelajakka yetaklaydi. Respublika ta'lim markazi tomonidan 2021-yil yangi ona tili va o'qish savodxonligi darsligining yaratilishi ayni muddao. Chunki bu darslikdagi topshiriqlar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, matn mazmunini tushunib savollarga javob topishga, tushirib qoldirilgan so'zlarni topib qo'yishga, rasm asosida gaplar, kichik hikoyalar tuzishga o'rgatadi.

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Mo'jizaviy hasharot" mavzusi topshiriqlari bilan tanishsak. Bu mavzu 7 soatga mo'ljallanga

O'qiganlari, ko'rganlari, eshitganlari asosida darslikda berilgan savollarga javob topadilar. Bunda "Asalariga yordam" ta'limiy o'yinidan foydalanamiz. Doskaga bahor gullarini ilib qo'yiladi. Asalari gulga qo'nib, asal yig'ishi uchun savolga javob berishi kerak. Har bir guruh o'quvchilari savolga javob berib asalariga yordam beradi va guruhi uchun ball yig'adi.

O'quvchilarga Asalari qanday boqiladi? mavzusini o'qitamiz. Matnni o'qishni o'yin usulida tashkil qilamiz. Bunda o'qituvchi ovoz chiqarib o'qiganda o'quvchilar ko'zlari bilan o'qiydilar. O'qituvchi ko'zi bilan o'qishga o'tsa o'quvchilar ovoz chiqarib o'qishadi. Bu almashish matn yakunigacha davom etadi. Bu usul o'quvchini hushyorlikka, ziyorlikka undaydi Matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazamiz Asalarilarni qanday parvarish qilish haqida ma'lumotlar beramiz.

"Zakovat" metodi orqali darslikda berilgan savollarga o'quvchilar javob berishadi. Bunda savol yozilgan qog'oz konvertga solib qo'yiladi. O'quvchi konvertni ochib savolni o'qiydi va javob beradi. Javob to'liq bo'lmagan xollarda boshqa o'quvchilar javobni to'ldirishi mumkin.

O'quvchilar matndagi sonlarni topishadi va ish daftariga so'zlar bilan yozishadi. Bu topshiriqni bajarish davomida o'quvchi sonlarni so'z bilan yozilishini va imlo qoidalariga rioya qilib xatosiz yozishni o'rganadi. Yetti, oltmish, yuz, on besh, yigirma.

Kelgusi darslar davomida o'quvchilar bilan darslikdagi topshiriqni bajarish uchun "Bumerang" texnologiyasidan foydalanamiz. Bunda kitobda berilgan savollarni o'quvchi soniga qarab ko'paytirib yozamiz. Yani bitta savol bir necha marta takrorlanishi mumkin. O'quvchilar o'ziga tushgan savolga javob beradi. Bu savol boshqa o'quvchida ham takrorlanadi. Boshqa o'quvchi ham o'zining javobini

¹ Fargona viloyati O'zbekiston tumani 8-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

² Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalish 205-guruh talabasi




aytadi. Barcha javoblar eshitilgach, matn ichidan o'sha savolning javobini topib o'qib berishadi va o'sha joyni ish daftariga ko'chirib yozishadi. Bu topshiriq ham o'quvchi uchun qiyinday tuyuladi. Lekin o'yin orqali bajarsalar, ularga qiziqarli bo'ladi. O'yin davomida mavzuni o'zlashtirib oladilar.

Keyingi topshiriqda matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ajratib olamiz. Ularning aytilishi va yozilishidagi farqni aniqlaymiz. *Nozikta'b – noziktab, Yo'qsa – yoqsa, Chaqib – chaqip, Ko'tarib – ko'tarip, Hasharot – hashorot, Kilogramm – kilogram* kabi bajaramiz. Bu mashqning ahamiyati shundaki, o'quvchining so'zlarini yozishida shu kabi xatolarga yo'l qo'yishining oldini olamiz.

“Taqqoslash” metodi orqali asalarini insonlarga, boshqa jonivorlarga nisbatan qiyoslaymiz.

Inson gul hidini 1-metrdan sezadi. //Asalari esa 1000 metrdan sezadi. Insonlar oilada ko'pi bilan 20 nafargacha yashaydi. //Asalarilar 60 mingtagacha yashaydi. Itlar soatiga 50 kilometrga yuguradi. //Asalarilar esa soatiga 60 kilometrga uchadi. Bir qoshiq asal yig'ish uchun asalari 19 mingta gulga qo'nadi.


O'quvchilar darslikdagi rasm asosida gap tuzishadi. O'quvchining tuzgan gapiga uning partadoshi fikrini bildiradi. Bu ma'lumotlarni bilib olgach, o'quvchilar **“Klaster”** usulida asalariga ta'rif beradilar.



Odamlar ham asalarilarning bu xususiyatidan o'rganishi mumkinligini bilib olishadi. Rasm asosida o'quvchilarga gap tuzdiraman. Bolaga ism va kuchukka nom qo'yib gap tuzishadi. Bunda atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yozilishini bilib olishadi va mustaqil tuzgan gaplarini yozishadi.

“Venn diagrammasi” metodi orqali asalari va qaldirg'ochning o'xshash va farqli tomonlarini aytadilar.

Qaldirg'och Asalari



Ish daftarga she'ning birinchi bandini ko'chirib yozishadi. She'rdagi ohangdosh so'zlarni aniqlab tagiga chizishadi. O'quvchi aytilishida o'xshash bo'lgan so'zlarni mustaqil topishni o'rganadi. Shu so'zlarning tagiga chizishadi.

Yurmas achchiq izg'irin Dalalarda izillab.

Kelar yoqimtoy, shirin Shabadalar g'izillab.

Izg'irin – shirin, izillab – g'izillab.

Ish daftariga she'rdagi ajratib berilgan so'zlarni aniqlashadi va izohli diktant qilib yozishadi.

Izohli diktant.

Izg'irin - sovuq, Izillab - sovqotib, g'izillab - tez-tez, miq etmay - qimirlamay, Borliq tinchi buzilar - bezovtalanar

Darsni mustahkamlash qismida “**Bliss so'rov**” metodidan foydalanamiz.

1. Asalari qanday hasharot?
2. Uning qanday foydali tomonlarini bilasiz?
3. Asalari boqishni xohlaysizmi?
4. Kim kelajakda asalarichilik bilan tadbirkorlik qilishni istaydi?

O'quvchilar bilan darslikda berilgan rasm asosida suhbat o'tkazamiz

1. Rasmda qaysi hasharotni ko'ryapsiz?
2. Asalarilar nima qilishyapti?
3. Asalarichi nimaga bunday kiyinib olgan?
4. Asalning foydali xususiyatini bilasizmi? kabi savollarga javob berishgandan keyin rasm asosida hikoya tuzishadi. Hikoya davomida asalarilarning mehnati, asal yig'ishdagi qiyinchiliklari, asalarichining vazifalari, asalning foydali tomonlari haqida aytishadi. Keyin og'zaki tuzgan hikoyalarga sarlavha topishadi. Ish daftariga sarlavha qo'yib, o'zlari tuzgan hikoyalarni yozishadi. Yozgan hikoyalarni partadagi o'rtoqlari bilan almashtirib o'qiydilar va o'z fikrlarini bildiradilar.

Bu darslikning afzallik tomonlari shundaki, bu darslik bilan ishlash jarayonida o'quvchilar gap tuzishni, gap tarkibidan tushirib qoldirilgan so'zni topishni, tinish belgilarini qo'yishni, ma'nodosh, ohangdosh so'zlar topishni, so'zlarni bo'g'inga ajratishni, qo'shimchalarni qo'shib so'zlar tuzishni, matndan berilgan savollarga javob topishni, dialog yaratishni, rasm asosida matn tuzishni o'rganadilar. Ona tili fanidan o'rganiladigan bilimlarni xech qanday qoidalarni yod olmay, mashqlarni bajarish davomida amaliy o'rganadilar. Bir so'z bilan aytganda bola dars davomida berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishga, ijodiy fikrlashga, hayoti davomida qo'llashga o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6008663?query=milliy%20dastur#sr-1>
2. K.Usmonova. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2005-y.
3. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. Buxoro. 2006-y.

